“TARBIYA” FANIDA O‘QUV MATERIALINING ILMIY SAVIYASI VA DIDAKTIK REDUKSIYA MUAMMOSI

G‘oyibnazarov Rahmatilla

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ixtiyorov Doston

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Dinshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada "Tarbiya" fani o‘quv materiallarining g‘oyaviy va ilmiy-nazariy saviyasini saqlagan holda ularni o‘quvchilarning yosh va bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ya’ni didaktik reduksiya masalasi tahlil qilinadi. Tabiiy fanlardan farqli ravishda bu fanning mazmuni qadriyat va me’yorlardan iborat bo‘lgani sababli soddalashtirish ikki xavf tug‘dirishi asoslanadi: me’yor uning asosidagi sababsiz quruq qoidaga aylanishi va munozarali masalalar yagona "to‘g‘ri javob"ga keltirilishi. Nemis didaktikasidagi reduksiya nazariyasi, didaktik transpozitsiya va ta’limiy rekonstruksiya modellari, kognitiv yuklama nazariyasi hamda axloqiy tarbiya bo‘yicha tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilinib, "Tarbiya" fani uchun maqbul reduksiyaning besh mezoni va ularga mos tekshiruv savollari taklif etiladi. Natijalardan darslik mualliflari, ekspertlar va o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, didaktik reduksiya, didaktik transpozitsiya, o‘quv materiali, ilmiylik tamoyili, tushunarlilik tamoyili, qadriyatlar tarbiyasi, kognitiv yuklama.

Аннотация. В статье рассматривается проблема дидактической редукции в предмете «Тарбия» (Воспитание): как адаптировать учебный материал к возрастным и познавательным возможностям учащихся, не снижая его идейного и научно-теоретического уровня. Обосновывается, что содержание предмета носит

ценностно-нормативный характер, поэтому упрощение несёт два специфических риска: превращение нормы в правило без объяснения её оснований и сведение дискуссионных вопросов к единственному «правильному ответу». На основе сравнительного анализа немецкой теории дидактической редукции, концепций дидактической транспозиции и образовательной реконструкции, теории когнитивной нагрузки и исследований морального воспитания предлагаются пять критериев допустимой редукции и вопросы для их проверки, адресованные авторам учебников, экспертам и учителям.

Ключевые слова: предмет «Тарбия», дидактическая редукция, дидактическая транспозиция, учебный материал, принцип научности, принцип доступности, ценностное воспитание, когнитивная нагрузка.

Abstract. The article examines didactic reduction in the school subject "Tarbiya" (moral and civic education) in Uzbekistan, that is, how teaching materials can be adapted to students' age and cognitive capacities without lowering their value-related and scientific-theoretical level. Because the subject's content consists of values and norms rather than empirical facts, simplification carries two specific risks: a norm may turn into a rule stripped of its reasons, and contested questions may be reduced to a single "correct answer". Drawing on a comparative analysis of the German theory of didactic reduction, the concepts of didactic transposition and educational reconstruction, cognitive load theory and research on moral education, the article proposes five criteria for acceptable reduction, with guiding questions for textbook authors, reviewers and teachers.

Keywords: Tarbiya subject, didactic reduction, didactic transposition, teaching materials, scientific accuracy, accessibility, values education, cognitive load.

KIRISH

"Tarbiya" fani umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2020/2021 o‘quv yilidan bosqichma-bosqich joriy etildi va "Odobnoma", "Vatan tuyg‘usi", "Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlari o‘rnini egalladi [9]. Natijada axloq,

huquq, fuqarolik, milliy va diniy qadriyatlarga oid tushunchalar bir fan doirasida birinchidan o‘n birinchi sinfgacha izchil tizimga solinishi kerak bo‘ldi.

Har bir tushuncha ilmiy jihatdan to‘g‘ri va o‘quvchi yoshiga mos berilishi kerak, ammo ilmiylik va tushunarlilik tamoyillari amaliyotda tez-tez to‘qnashadi. Nemis didaktikasida bu ziddiyat "didaktik reduksiya" nomi bilan o‘rganiladi. G. Gryuner reduksiyani didaktikaning markaziy muammosi deb atagan va soddalashtirilgan bayon fan nuqtai nazaridan to‘g‘ri bo‘lishi hamda keyinchalik kengaytirilganda inkor etilmasligi kerakligini asoslagan [5]; M. Lehner bu g‘oyani zamonaviy o‘qitish amaliyotiga tatbiq etgan [8]. Fransuz didaktikasida Y. Shevallar ilmiy bilimning "o‘qitiladigan bilim"ga aylanishini didaktik transpozitsiya deb nomlagan [3], U. Kattmann va hammualliflari esa fan mazmuni va o‘quvchi tasavvurlarini teng manba sifatida qaraydigan ta’limiy rekonstruksiya modelini ishlab chiqqan [4].

Bu nazariyalar asosan matematika va tabiiy fanlar materialida yaratilgan, u yerda ilmiy bilim empirik dalil bilan tekshiriladi. "Tarbiya" fani mazmunining katta qismi esa qadriyat va me’yorlar, ularning asoslari haqidagi bilimlardir. Bunday mazmun soddalashtirilganda aniqlik bilan birga me’yorning ma’nosi ham yo‘qolishi mumkin. "Kattalarni hurmat qil" qoidasi ortidagi o‘zaro g‘amxo‘rlik va avlodlar uzviyligi haqidagi fikr tushirib qoldirilsa, o‘quvchida qoida qoladi-yu, uning nima uchun kerakligi tushunilmaydi.

Mahalliy adabiyotlarda fan metodikasiga oid tavsiyalar ko‘p, ammo qadriyatli mazmunni soddalashtirishning nazariy mezonlari alohida o‘rganilmagan. Maqolaning maqsadi didaktik reduksiya nazariyalarini shu fan nuqtai nazaridan tahlil qilish va materialning g‘oyaviy hamda ilmiy-nazariy saviyasini saqlagan holda uni moslashtirish mezonlarini asoslashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Empirik ma’lumotlar hozircha yig‘ilmagani uchun raqamli ko‘rsatkichlar keltirilmaydi; natija keyingi empirik tekshiruvga tayyor mezonlar tizimi sifatida beriladi.

Avval nazariy tahlil orqali fanning me’yoriy asoslari [9] va didaktik reduksiya va didaktik tahlilga oid fundamental ishlar [8] o‘rganilib, reduksiya tushunchasining tarkibiy qismlari ajratildi. So‘ng uch guruh manbalar qiyoslandi: soddalashtirish nazariyalari [3], o‘quvchining bilish imkoniyatlariga oid psixologik qarashlar [2; 13] hamda axloqiy va fuqarolik tarbiyasi tadqiqotlari [1; 6;]. Qiyoslash uch savol asosida olib borildi: nazariya qaysi bilimni "to‘g‘ri" deb hisoblaydi, o‘quvchi imkoniyatini qanday hisobga oladi va soddalashtirish chegarasini qanday belgilaydi. Yakunda xulosalar mezonlar va tekshiruv savollari shaklida umumlashtirildi. Manbalarning bibliografik ma’lumotlari va DOI raqamlari nashriyot saytlari hamda ilmiy bazalarda tekshirildi.

NATIJALAR

Reduksiya turlari. Nemis didaktikasida miqdoriy reduksiya (material hajmini qisqartirish) va sifat reduksiyasi (murakkab mazmunni soddaroq, lekin to‘g‘ri shaklda ifodalash) farqlanadi [8]. Sifat reduksiyasi gorizontal bo‘lishi mumkin, bunda tushuncha mazmuni o‘zgarmaydi va misol yoki obraz orqali tushuntiriladi. Vertikal reduksiyada esa umumlashtirish darajasi pasaytirilib, ayrim jihatlar keyingi bosqichga qoldiriladi. "Tarbiya" fanida har bir tur o‘z xavfiga ega (1-jadval).

1-jadval. Didaktik reduksiya turlari va ularning "Tarbiya" fanidagi xavflari

Reduksiya turi	Mohiyati	"Tarbiya" fanidan misol	Asosiy xavf
Miqdoriy	Mavzular va ma’lumotlar hajmini kamaytirish	Huquqiy tushunchalardan boshlang‘ich sinfda faqat "qoida" va "majburiyat"ni olish	Fan tizimidagi bog‘liqliklar uzilishi

Gorizontal (sifat)	Mazmunni saqlab, uni misol va obraz orqali berish	Bag‘rikenglikni sinfdagi turli fikrlarga munosabat misolida tushuntirish	Misolning tushunchadan ko‘ra ko‘proq esda qolishi
Vertikal (sifat)	Umumlashtirish darajasini pasaytirish	Vatanparvarlikni dastlab oila, mahalla va maktabga mehr sifatida berish	Tor ta’rif keyin "to‘g‘rilanmaydigan" tasavvurga aylanishi
Me’yoriy soddalashtirish	Qadriyatni qisqa qoida yoki shiorga keltirish	"Yolg‘on gapirma" qoidasini asossiz berish	Me’yorning sababi va qo‘llanish shartlari yo‘qolishi

Jadvaldagi oxirgi qatorni nazariy adabiyotlar alohida ajratmaydi, biz uni ataylab qo‘shdik, chunki qadriyatli mazmunni soddalashtirishda eng oson yo‘l aynan shu. Qoida eslab qolish uchun qulay, ammo unda o‘quvchi muhokama qila oladigan, o‘z hayotidagi vaziyatga solishtira oladigan asos qolmaydi.

Qadriyatli mazmunda ilmiylik. Tabiiy fanlarda "ilmiy to‘g‘ri" odatda "dalil bilan tasdiqlangan" degani. "Tarbiya" fanida uch xil bilim aralashgan: faktik bilim (masalan, Konstitutsiya qachon qabul qilingani), tushunchaviy bilim ("adolat", "mas’uliyat", "fuqarolik" tushunchalarining mazmuni va o‘zaro munosabati) va me’yoriy bilim (jamiyat qabul qilgan qadriyatlar va ularning asoslari). Gryunerning ikki sharti [5] uchalasiga qo‘llanadi, lekin turlicha tekshiriladi. Fakt manbaga solishtiriladi. Soddalashtirilgan ta’rif kengroq ta’rifning bir qismi bo‘lib qolishi, unga zid kelmasligi kerak. Me’yorda esa qadriyat va uning asosi birga saqlanishi zarur.

Materialning g‘oyaviy saviyasi masalasi ham shu yerda oydinlashadi. Bizningcha, uni matnda qadriyatlar necha marta tilga olingani emas, ular qanchalik asosli va izchil tushuntirilgani belgilaydi. Shiorga aylangan qadriyat yuqori sinfda tanqidiy savolga duch

kelganda himoyasiz qoladi, asoslangan qadriyat esa o‘quvchiga javob topish uchun tayanch beradi.

Bilish imkoniyatiga moslashtirish. J. Bruner har qanday fanni istalgan yoshdagi bolaga "intellektual jihatdan halol" shaklda o‘rgatish mumkinligini taxmin qilgan va spiral dastur g‘oyasini ilgari surgan [2]; bir qadriyatni har bosqichda chuqurroq qayta ko‘rish "Tarbiya" fanining tuzilishiga ham mos. L. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi ta’limotiga ko‘ra [14], moslashtirish o‘quvchining hozirgi darajasiga emas, kattalar yordamida erisha oladigan darajasiga mo‘ljallanishi kerak, haddan tashqari soddalashtirilgan matn esa o‘sish uchun qiyinchilik qoldirmaydi.

Kognitiv yuklama nazariyasi boshqa jihatni ko‘rsatadi: ishchi xotira cheklangan, shuning uchun materialning ichki murakkabligidan tashqari uning taqdim etilish shakli yaratadigan "begona" yuklama ham o‘zlashtirishga ta’sir qiladi [13]. Darsliklarda tushunishga ko‘pincha g‘oyaning o‘zi emas, uzun jumlalar, izohlanmagan atamalar va bir sahifaga sig‘dirilgan ortiqcha ma’lumot xalaqit beradi. Bunday hollarda bayonni soddalashtirish yetarli, mazmunga tegish shart emas.

Maqbul reduksiya mezonlari. Tahlil asosida besh mezon ishlab chiqildi (2-jadval). Dastlabki ikkitasi Gryuner ishidan [5] olinib, qadriyatli mazmunga moslashtirildi, qolganlari yuqoridagi tahlildan kelib chiqadi.

2-jadval. "Tarbiya" fanida maqbul didaktik reduksiya mezonlari

Mezon	Mazmuni	Tekshiruv savoli
Ilmiy to‘g‘rilik	Soddalashtirilgan bayon fakt va tushunchaga zid emas	Mutaxassis bu jumlani xato deb baholaydimi?
Kengaytiriluvchanlik	Keyingi sinfda bayon to‘ldiriladi, lekin inkor etilmaydi	Yuqori sinf darsligi bu ta’rifni "aslida bunday emas" deb tuzatishga majbur bo‘ladimi?

Me’yor va asosning birligi	Qadriyat uning sababi bilan birga beriladi	O‘quvchi "nega?" deb so‘rasa, matnda javob bormi?
Munozaralilikni saqlash	Jamiyatda bahsli bo‘lgan masala bahsli sifatida ko‘rsatiladi	Matn bir nechta asosli nuqtai nazarga o‘rin qoldiradimi?
Kognitiv mutanosiblik	Murakkablik o‘quvchining yaqin rivojlanish zonasiga mos	Qiyinchilik mazmundan kelib chiqyaptimi yoki bayon shaklidanmi?

To‘rtinchi mezonning manbai nemis siyosiy ta’limida 1976-yilda shakllangan Boytelsbax konsensusidir: o‘qituvchi o‘quvchini mustaqil fikr shakllantirish imkonidan mahrum qilmasligi, ilmda va jamiyatda bahsli masalalar darsda ham bahsli sifatida ko‘rsatilishi kerak [15]. D. Xess va P. Makavoy bahsli savollarni jamiyatda haqiqatan turlicha baholanadigan va kelishuvga erishilgan masalalarga ajratishni taklif qilgan [6]. "Tarbiya" fani uchun bu farq muhim. Inson qadr-qimmati, zo‘ravonlikni qoralash yoki qonun ustuvorligi bahs mavzusi emas, ularni amalga oshirish yo‘llari haqida esa turli asosli fikrlar bo‘lishi mumkin. Reduksiya ana shu xilma-xillikni yo‘qotmasligi lozim.

MUHOKAMA

Ta’limiy rekonstruksiya modelida o‘quvchining kundalik tasavvurlari o‘qitishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida qaraladi [4]. "Tarbiya" fanida bu ayniqsa o‘rinli: o‘quvchi darsga adolat, do‘stlik yoki hurmat haqida oila, mahalla va ijtimoiy tarmoqlardan olgan tasavvurlar bilan keladi, ularni hisobga olmagan matn esa yodlanadigan matnga aylanadi. Farq shundaki, tabiiy fanlarda kundalik tasavvur ilmiy tushuncha bilan almashtiriladi, bu yerda esa ko‘proq boyitiladi va asoslanadi. Shevallar ko‘rsatganidek, o‘qitiladigan bilimga ta’lim siyosati ham ta’sir qiladi [3], shu bois mezonlar darslik ekspertizasida ham ish berishi mumkin.

Xarakter tarbiyasi dasturlari bo‘yicha meta-tahlil o‘rtacha ta’sirni ijobiy, ammo kichik deb baholagan [1]. Qoidalarni sanashdan nariga o‘tmaydigan dars mazmunidan katta ta’sir kutish asossiz. Axloqiy tarbiya strategiyalari sharhida esa munozara, dilemmalarni tahlil qilish va o‘quvchining faol ishtiroki samarali usullar qatorida ko‘rsatilgan [11]. Uchinchi va to‘rtinchi mezonlar matnda aynan shunday ishlash uchun joy qoldirishga xizmat qiladi.

Mezonlar o‘qituvchi kompetensiyasi bilan ham bog‘liq. L. Shulman fan mazmunini o‘quvchiga tushunarli shaklga keltirishni pedagogik fikrlashning "transformatsiya" bosqichi deb atagan [12]; didaktik reduksiya shu transformatsiyaning bir ko‘rinishi. V. Klafkining didaktik tahlili ham mazmun tanlashda uning hozirgi va kelajakdagi ahamiyatini, qaysi umumiy g‘oyaga misol bo‘lishini so‘rashni talab qiladi [7]. Darsni muayyan sinfga moslashtirish baribir o‘qituvchi zimmasida qoladi, shuning uchun 2-jadvaldagi savollar dars tayyorlashda ham ish beradi.

Tadqiqotning cheklovlari ham bor: mezonlar hali darsliklarda sinalmagan, bahsli va kelishilgan masalalar chegarasi ijtimoiy kontekstga bog‘liq, tahlil esa asosan xorijiy nazariyalarga tayangan va mahalliy pedagogik meros bilan qiyoslashni kutmoqda.

XULOSA

"Tarbiya" fanida didaktik reduksiya tabiiy fanlardagidan murakkabroq: qadriyatli mazmun soddalashtirilganda ilmiy aniqlik bilan birga me’yorning asosi va bahsli masalalarning xilma-xilligi ham yo‘qolishi mumkin.

Materialning g‘oyaviy saviyasini qadriyatlar qanchalik puxta asoslab berilgani belgilaydi. Taklif etilgan besh mezon shu saviyani soddalashtirishda saqlab qolishga xizmat qiladi.

O‘quvchiga qiyin bo‘lgan matnda ko‘pincha bayon shakli g‘ov bo‘ladi. Shu bois moslashtirishni til, tuzilma va misollarni qayta ko‘rib chiqishdan boshlab, mazmunni qisqartirishga undan keyin murojaat qilish o‘rinli. Keyingi bosqichda mezonlar asosida

turli sinf darsliklarini kontent-tahlil qilish va ekspert baholari mosligini tekshirish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, M., McGrath, R. E., Bier, M. C., Johnson, K., & Berkowitz, M. W. (2023). A comprehensive meta-analysis of character education programs. Journal of Moral Education, 52(2), 119–138. https://doi.org/10.1080/03057240.2022.2060196

2. Bruner, J. S. (1960). The process of education. Harvard University Press.

3. Chevallard, Y., & Bosch, M. (2020). Didactic transposition in mathematics education. In S. Lerman (Ed.), Encyclopedia of mathematics education (pp. 214–218). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-030-15789-0_48

4. Duit, R., Gropengießer, H., Kattmann, U., Komorek, M., & Parchmann, I. (2012). The model of educational reconstruction: A framework for improving teaching and learning science. In D. Jorde & J. Dillon (Eds.), Science education research and practice in Europe (pp. 13–37). Sense Publishers. https://doi.org/10.1007/978-94-6091-900-8_2

5. Grüner, G. (1967). Die didaktische Reduktion als Kernstück der Didaktik. Die Deutsche Schule, 59(7/8), 414–430.

6. Hess, D. E., & McAvoy, P. (2015). The political classroom: Evidence and ethics in democratic education. Routledge.

7. Klafki, W. (2000). Didaktik analysis as the core of preparation of instruction. In I. Westbury, S. Hopmann, & K. Riquarts (Eds.), Teaching as a reflective practice: The German Didaktik tradition (pp. 139–159). Lawrence Erlbaum.

8. Lehner, M. (2012). Didaktische Reduktion. Haupt (UTB).

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/-4885018

10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. https://lex.uz

11. Schuitema, J., ten Dam, G., & Veugelers, W. (2008). Teaching strategies for moral education: A review. Journal of Curriculum Studies, 40(1), 69–89. https://doi.org/10.1080/00220270701294210

12. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22. https://doi.org/10.17763/haer.57.1.j463w79r56455411

13. Sweller, J., van Merriënboer, J. J. G., & Paas, F. (2019). Cognitive architecture and instructional design: 20 years later. Educational Psychology Review, 31(2), 261–292. https://doi.org/10.1007/s10648-019-09465-5

14. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

15. Wehling, H.-G. (1977). Konsens à la Beutelsbach? Nachlese zu einem Expertengespräch. In S. Schiele & H. Schneider (Hrsg.), Das Konsensproblem in der politischen Bildung (S. 173–184). Klett.